

---

**MUNIS VA OGHIYNING FIRDAVS UL-IQBOL TARIXIY ASARI**

---

*Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiyning Firdavs ul-iqbol asari haqida soʻz yuritiladi. Shuningdek asarning yozilish tarixi, tarixiy ahamiyati va voqealar ketma ketligi xususida ham alohida toʻxtalib oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:** Firdavs ul-iqbol, Eltuzarxon, Muhammad Amin inoq, Avaz inoq, Muhammad Rahimxon, badiiy-estetik.

---

**MUNIS AND OGHI'S HISTORICAL POEM FIRDAWS UL-IQBAL**

---

*Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*  
*Tashkent state university of oriental studies*  
*2-course student Faculty of Easer civilization and history*

**Abstract:** This article talks about Shermuhammad Munis and Muhammad Reza Ogahi's work Firdaws ul-Iqbal. Also, the history of the work, its historical significance, and the sequence of events are also discussed.

**Key Words:** Firdaws ul-iqbal, Eltuzarkhan, Muhammad Amin inaq, Awaz inaq, Muhammad Rahimkhan, artistic and aesthetic.

"Firdavs ul-iqbol" asari XIX asrda Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asar boʻlib, "Baxt saodat jannati" degan ma'noni anglatadi. 1805-yil o'rtalarida Xiva xoni Eltuzarxon Munisga oʻz sulolasi tarixini yozishni buyuradi va u bu asarni "Firdavs ul-iqbol" deb nomlaydi. Bu asarda qadim zamonlardan boshlab 1825-yilgacha boʻlgan Xorazmda sodir boʻlgan tarixiy voqealar bayon etilgan. Munis bu asarni Sharq tarixchilarining an'alariga muvofiq xamd va na'lda boshlagan. Soʻngra oʻz hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishni boshlagan. Ammo, Munis bu asarni tamomlashga ulgurolmay, vafot etadi. U qadimgi davrlardan boshlab, Muhammad Rahimxon I hukmronligining yettinchi yili ya'ni 1812-yil martgacha boʻlgan voqealarni bayon etishga ulgurgan xolos. "Firdavs ul-iqbol" asarini shogirdi va jiyani Ogahiy davom ettiradi. U 1812-yildan boshlab Xorazmda sodir boʻlgan voqealarni yozishni boshlagan.

Munis va Ogahiyning „Firdavs ul-iqbol“ asari uzoq, davrni qamrab olgan boʻlib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini oʻrganishda qimmatli manbadir.

Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825-yilgacha boʻlgan siyosiy tarixi bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va shuningdek, Xiva xonlarining qoʻshni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan boʻlgan munosabatlari haqida ham koʻplab maʼlumotlar keltirilgan.

Asar muqaddima, 5 bob va xotimadan iborat. 1-bobda Odam Atodan to Nuh paygʻambar avlodigacha boʻlgan haftanoma hodisalar yoritilgan. 2-bobda Yofasdan Qoʻngʻirot shoʻbasigacha boʻlgan moʻgʻul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan. 3-bobda Kurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir boʻlgan voqealar toʻgʻrisida yozilgan. 4-bobda Eltuzarxonning ota-bobolari xayoti tasvirlangan. 5-bobda Eltuzarxonning tugʻilishidan bu asarning yozilib tamom boʻlishiga qadar boʻlgan voqealar xususida qalam tebratilgan. Xotima esa olimlar, avliyo, amir, bek, shoir, hunarmandlar xaqida maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi.

"Firdavs ul-iqbol" asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadimgi davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806-1825-yil) davrigacha boʻlgan voqealar xronologik ketma-ketlikda aks ettirilgan. Munis qadim zamonlardan boshlab, Abulgʻoziyxon davrigacha Xorazmda boʻlgan voqealarni bayon etarkan, Abulgʻoziyxon davrida Xiva va Buxoro xonliklarining oʻzaro munosabatlariga ham toʻxtalib oʻtgan. Shuningdek asarda XVIII va XIX asrning birinchi choragi, yaʼni qoʻngʻirotlar sulolasi vakillarining Muhammad Amin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1790-1804), Eltuzarxon (1804-1806) va Muhammad Rahimxon I (1806-1825) larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar davri bayon etilgan va ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga doir ayrim maʼlumotlar berilgan.

Munis avvalboshida asarni "Iqbolnoma" deb nolamoqchi boʻlgan. Keyin uni "Firdavs ul-iqbol" ga almashtiradi. Bu haqida asarda u "Har taqdir bila bu muxtasar shurigʻa homai ibtido surildi, chun bahori iqboli sohibqironi bila Firdavsdek ziynat topib erdi, binoan alayh (shunga koʻra) "Firdavs ul-iqbol" gʻa mavsum boʻldi" degan edi.

Asarda Muhammad Amin inoq, Avaz inoq va Eltuzarxon davrlaridagi asosiy voqealar alohida nomlanish bilan qatʼiy xronologik ketma-ketlikda berilgan. Muhammad Rahimxon davri esa uning julusidan boshlanadi va asarning yarmidan koʻprogʻini tashkil etadi.

"Firdavs ul-iqbol" ning Ogahiy yozgan qismidagi sheʼriy matnlar mavzusiga koʻra quyidagicha: 1) asarning yozilish sababi; 2) xon va aʼyonlar vasfi; 3) bunyodkorlik ishlari tavsifi; 4) harbiy mojarolar tavsifi; 5) shikor– ov tavsifi; 6) toʻy, sport va xalq oʻyinlari talqini.

"Firdavs ul-iqbol" asari badiiy-tarixiy jihatdan Ogahiy uchun katta tajriba maktabi boʻlgan. Bu asarni yozish jarayonida orttirilgan tajriba keyinchalik shu turdagi asarlarni yozishda qoʻl kelgan.

Munis asarning uchinchi bobida turli xil asarga “Zafarnoma” Muqaddimasiga, “Zafarnoma” ga, “Mirsod al-ibod” ga, bir marta “Tarixi olamaroyi Abbosiy” ga murojaat qilgan va ikki joyda Hasan Rumluning “Ahsan at-tavorix” ini tilga olgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarini tarjima qilishni amerikalik Yuriy Bregel Moskva 1972-yilda tarjima qilishni boshlagan. 1999- yilda mazkur asarning ingliz tilidagi tarjimasi nashr etildi. Asarning tili arabiy va forsiy iboralarga boy bo‘lganligi uchun uni tarjima qilish oson kechmagan. Amerika olimi Y.Bregel umrining chorak asrini “Firdavs ul-iqbol” asarini tadqiq qilishga bag‘ishlagan.

“Firdavs ul-iqbol” ning to‘qqizta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sank-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari institutida, oltitasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida, yana bir nusxasi esa Xelsinkida saqlanmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki "Firdavs ul-iqbol" asari Munis va Ogahiy qalamiga mansub, badiiy-estetik jihatdan muhim manba hisoblanadi. Bu asarda nafaqat Xorazm tarixi, balki Markaziy Osiyoning ham qadimgi davrlardan 1825-yilgacha bo‘lgan tarixi bayon ettirilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent. 2010.
2. Munirov.Q Xorazmda tarixnavislik. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2002.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.